

**IJTIMOIIY SOHADAGI ISLOHOTLAR – MA’NAVIIY TARAQQIYOT STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH VOSITASI****Mamatov M. -***Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti,  
falsafa fanlari doktori (DSc)*

Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq tanlab olingan taraqqiyot yo’limiz hamda bugun olib borilayotgan islohotlarimizdan ko’zlangan maqsadlardan biri, shubhasiz, jamiyatimiz hayotining tarqkibiy qismi bo’lgan ijtimoiy sohaga doir islohotlarni amalga oshirish, mamlakatimiz fuqarolari turmush sharoitlarini yaxshilab borish, inson daxlsizligi va qadr-qimmatini ta’minlash hisoblanadi. Bu yo’lda ijtimoiy sohaga berilayotgan alohida e’tiborni ta’kidlash lozim.

Hozirgi kunda sohada olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlar tarixda hech kuzatilmagan. Aholi bilan uning orasida turib ishlash, himoyaga muhtoj qatlamni har tomonlama qo’llab-quvvatlab, kambag’alikka barham berish bo’yicha aniq dasturlar asosida ish olib borilmoqda.

Natijada ushbu toifadagi shaxslarga moliyaviy ko’mak berish maqsadida davlat budjetidan ajratiladigan mablag’ miqdori tobora oshirilib, ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni joriy yilda oldingi yillarga qaraganda 1,5 barobarga oshirildi. Hozirgi kunda aholi orasidan haqiqiy ehtiyojmand oilalarni aniqlashning shaffof tizimi yaratilib, ularning muammolari joyida, hatto, uyma uy yurib o’rganilmoqda. Xotin-qizlar va boquvchisini yo’qotgan bolalar, nogironligi bo’lgan shaxslarga moddiy yordam berishning turli shakl va ko’rinishlari amalga oshirilmoqda.

Bu boradagi dolzarb muammolardan biri- aholi bandligini ta’minlash bo’yicha qat’iy choralar ishlab chiqilishi zarur. Shu o’rinda ta’kidlash lozimki, songgi yillarda hukumatimiz tomonidan aholi turmush tarzini yaxshilash, fuqarolarning moddiy, ijtimoiy-madaniy ahvolini yuksaltirib, ularning turli sohalarga doir muammolarini bartaraf etish bo’yicha qator huquqiy- meyoriy hujjatlar qabul qilindi.

Ammo, kun tartibida hal etilishi lozim bo’lgan bir qator muammolar borki, ularni yechish davlat ahamiyatidagi vazifadir. Jumladan, yurtimizdagi ishsiz fuqarolarni ish bilan ta’minlash masalasi qay ahvolda, nima uchun yurtdoshlarimiz orasida ish qidirib xoriyga chiqib ketayotganlar soni ko’p, ularni shu yerda band qilish uchun nimalar qilish kerak, degan savollar dolzarbligicha qolmoqda. Ishsizlik – jiddiy, o’z ortidan o’nlab muammolarni keltirib chiqaruvchi muammo. Ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo’lmaslik oqibatida nafaqat shu shaxsning o’zi va oilasi, balki atrofidagilarga ham iqtisodiy, ma’naviy, qolaversa, ruhiy zarar yetishi sir emas.

Bu yo’lda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “Har bir oila-tadbirkor”, “Yoshlar- kelajagimiz” kabi dasturlar asosida amaliy ish olib borilmoqda. Ayniqsa, kelajak egalari bo’lgan yoshlarni tadbirkorlikka qiziqtirish, ulardagi tashabbuskorlik qobiliyatini yuzaga chiqarish, o’z biznesini yo’lga qo’yishi uchun ularni imtiyozli kreditlar bilan ta’minlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Zero, yoshligidan tadbirkorlikka o’rgangan avlod kelajakda jamiyatdagi juda ko’p muammolarni hal qilishga qodir bo’ladi.

So’nggi yillarda ehtiyojmand oilalar farzandlariga ta’lim olish va sog’ligini tiklash bo’yicha ham amaliy yordam ko’rsatilmoqda. Tibbiy yordamga muhtoj, nogiron yoki og’ir xastalikka chalingan bolajonlar davlat diqqat- e’tiboridan chetda qolgani yo’q, qizlarga, ayniqsa chekka hududlarda yashaydigan, ota onasidan ajralgan qizlar uchun oliy ta’limga kirish uchun ma’lum imtiyozlar berilgani, ularni kasb- hunarga o’qitish, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilishi kabi qator ishlarni sanashimiz mumkin.

Mamlakatimizda bolalar uyida tarbiyalanayotgan, yetim bolalarning taqdiri ham bee’tibor qoldirilayotgani yo’q. So’nggi yillarda ularning kelajakda o’z o’rnini topishi, jamiyatga kerakli shaxs sifatida yetilishi uchun sharoit yaratishga, ularni uy-joy bilan ta’minlash masalasiga urg’u berilayotganiga ham guvohmiz. So’zimiz isboti sifatida birgina 2021 yilda davlat budjetidan ayni shu maqsad uchun 50 milliard so’m mablag’ ajratilib, 900 nafar chin yetimlar uy bilan ta’minlanganini aytishimiz mumkin.

Bu kabi mamlakatimiz aholisini har tomonlama qo'llab quvvatlash yo'lidagi islohotlar barcha rahbar kadrlardan katta mas'uliyat, qat'iylik va matonatni talab qiladi. Davr talabidan kelib chiqib, endi ijtimoiy sohadagi islohotlarga yangicha yondashuv, yangicha ish uslubini tatbiq etish kerak bo'lmoqda. So'nggi ikki-uch yil xalqimizni kuchli ijtimoiy himoyalash yo'lida tub burilish bo'ldi, deb baralla ayta olamiz.

Ochiq aytilmagan, lekin azaldan mavjud bo'lgan bir haqiqat- aholi orasida kambag'allik, ayrim qatlamlarning munosib turmush tarziga ega emasligi tan olingani va bu kamchiliklarni bartaraf etish kun tartibidagi bosh masalaga aylanganidan xabardormiz. Masalaga yechim topish maqsadida respublika bo'yicha har bir shahar, tuman, qishloq, mahalla va ovullarda maxsus ishchi guruhlar tashkil qilinib, haqiqatdan ham yordamga muhtoj oilalar aniqlandi.

Shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar oldidagi muammolar, ayrimcheklovlarga barham berilib, aholi uchun ma'lum soliq imtiyozlari joriy qilindiki, natijada o'zini o'zi band qilgan fuqarolar soni keskin ko'paydi. Mehnat qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar tufayli mehnat faoliyatini yo'lga qo'yish uchun talab qilinadigan hujjatbozlik ishlari keskin qisqartirilib, tadbirkorlar uchun barcha imkoniyatlar eshigi ochib berildi.

Aholisining katta qismi qishloqlarda yashaydigan mamlakatimiz farovonligini ta'minlashda, albatta, qishloq aholisi turmush darajasi va sifatini ko'tarish dolzarb vazifadir. Dehqonlar va oilaviy tadbirkorlarga zaruriy sharoitlarni yaratish, ularni yer va moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash ushbu sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri.

Shu o'rinda aholimizni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari ham keng ko'lamda olib borilayotganini ta'kidlab, joriy yilda bu soha uchun davlat budjetidan 3 trillion so'm yo'naltirilganini aytish mumkin, bu esa 2016 yil bilan taqqoslaganda 5 barobar ko'p demakdir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra bugun respublika bo'yicha aholining 73 foizi toza ichimlik suvi bilan ta'minlangan.

Respublikamizda inson qadri, uning munosib turmush kechirishi masalasi doimiy e'tiborda ekanligini davlat tomonidan ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlash ishlariga ham juda katta -2016-yil bilan solishtirganda 5 barobar ko'p mablag' ajratilib, ushbu toifadagi kishilar soni hozirgi kunda bir million ikki yuz ming nafarni tashkil qilayotganida ham ko'rish mumkin.

Ammo, bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning hammasi ham yetarli samara berayotgani yo'q, yechimini kutayotgan muammolar, bartaraf etilishi shart bo'lgan kamchiliklar anchagina.

Shuning uchun ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, muhtojlikning qaysi ko'rinishi ekani va uning yuzaga kelish sabablarini o'rganib, oldini olish bo'yicha choralar izlash, bunday shaxslarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish hamda bu xayrli ishlarda zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish zarur.

Bunda, bizningcha, quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

Avvalo, respublika bo'yicha haqiqatdan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi hududlari o'rganilib (ayniqsa olis va chekka hududlar), ularning yashash ahvoli, uy-joy, ichimlik suvi, tibbiy xizmat va boshqa yashash uchun zaruriy vositalar bilan ta'minlanish holatlari aniq monitoring qilinishi;

Aholiga jamoaviy va alohida yordam ko'rsatish mexanizmini yo'lga qo'yib, fuqarolarning davlat bilan aloqasini kuchaytirish, ularda tashabbuskorlik kayfiyatini shakllantirish, yuksak turmush tarzini targ'ib qilish;

Davlat va jamiyat ko'magiga muhtoj shaxslar uchun berilayotgan imtiyozlar sirasiga shahar jamoat transporti, tibbiyot va sog'lomlashtirish muassasalaridan tekin foydalanish imkonini kiritish masalasini o'ylab ko'rish;

Olis qishloqlarda yashayotgan ayollarning hanuz og'ir sharoitlarda yashayotganini hisobga olgan holda, ular hayotini yengillashtirish, turmush darajasini ko'tarish bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish;

Xotin-qizlarni davr talabiga mos kasb-hunarga o'qitish va ular tadbirkorligi uchun soddalashgan tartibda sharoitlar yaratib berish va b.

Ijtimoiy sohada olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijadorligiga xalal berayotgan yana bir necha omillar borki, bular sirasiga sohaga aloqador idoralarda hamon eski ish usullari elementlari saqlanib qolganligi, zarur elektron baza va ma'lumotlar mavjud emasligi yoki ish jarayonida axborot texnologiyalaridan o'rinli foydalana bilmaslik kabi holatlarni kiritish mumkin.

O'sha mas'ul idoralar rahbarlari yoki yuqori turuvchi organdagilar davlatning ijtimoiy himoya sohasiga berayotgan e'tiboriga javoban ortiqcha qog'ozbozlik va rasmiyatchiliklarga barham berish yo'llarini izlashi kerak.

Bundan tashqari, mamlakatimizda xotin qizlar, kam ta'minlangan oila a'zolari, vaqtincha ishsizlarni ish bilan ta'minlash ustuvor masala sifatida ko'rilyotgan bir paytda, ayrim hududlarda mehnat bozorlaridagi bo'sh ish o'rinlari hisobi aniq yuritilmagani, doimiy ish bilan ta'minlashda sustkashlik qilingani sohadagi samaradorlikka salbiy ta'sir o'tkazmoqda.

O'rni kelganda jamiyatimizning keksa vakillari – nuroniylarni ham har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularga bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, salomatligini tiklash, ma'naviy hordiq chiqarish, umuman, jamiyatdagi o'z o'rnini his qilish imkonini berish yo'lida olib borilayotgan ishlarda ham talay kamchiliklar bor.

Bu yo'nalishda yana bir yordamga muhtoj qatlam, ya'ni nogironlar, ularga turli masalalarda yordam ko'rsatish tizimida muammolar mavjudligi, ayniqsa, ular uchun protez-ortopediya mahsulotlari, tibbiy buyumlar narxining balandligi va yetishmasligi haqida murojaatlar ko'pligi masalaning nechog'li dolzarbligini ko'rsatib turadi.

Davlatimiz hech bir shaxsni xoh sog'lom bo'lsin, xoh o'zgalar ko'magiga muhtoj, yolg'izlatib qo'yayotgani yo'q. Respublikamizda ana shunday tibbiy va ijtimoiy ko'makka muhtoj, "Muruvvat va saxovat" uylarida yashayotgan shaxslarning sog'ligini tiklash, ularning yaxshi hayot kechirishi uchun sharoitlarni yaratish, jamiyat e'tiboridan chetda qolmasligiga erishish kabi vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Masala yechimi yo'lida respublikamizdagi nogironlar uchun tibbiy vositalar, ortopediya buyumlari, texnik rehabilitatsiya jihozlari ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyatini takomillashtirish, zamonaviylashtirish, chet el investesiyasi va tajribasini jalb etgan holda tubdan yangilash kabilar turibdi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Sh.M. Mirziyoev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. -35 b.
2. Sh.M. Mirziyoev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2022. 440 b.
3. Q. Nazarov va boshqalar. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: Ma'naviyat nashriyoti, 2021. – B. 778.

#### PEZIOME:

Mazkur maqolada milliy va diniy qadriyatlar orqali ma'naviy tarbiyani rivojlantirish jarayonlari tahlil etilgan. Uning jamiyat zamonaviy taraqqiyotidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. ma'naviy tarbiyani rivoji nuqtai nazaridan fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** milliy, diniy, tarbiyaviy, qadriyat, yoshlar, g'oya, taraqqiyot, istiqbol, muammo, ilmiy tadqiqot.

#### PEZIOME:

В статье рассматриваются процессы развития духовного воспитания посредством национальных и религиозных ценностей. Обосновывается его практическое значение в развитии современного общества с точки зрения совершенствования духовного воспитания.

**Ключевые слова:** национальные, религиозные, воспитательные ценности, молодежь, идея, прогресс, перспективы, проблема, научное исследование.

**RESUME:**

This article deals with the development of spiritual education through national and religious values. Its practical significance in the development of modern society from the point of view of improving spiritual education was substantiated.

**Key words:** national, religious, educational values, youth, idea, progress, prospects, problem, scientific research.